ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Turkum maqolalar[1]

INTENSIVLIK VA DARAJALANISH MUNOSABATI

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologoya fanlari doktori, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish
va malaka oshirish markazining Buxoro bo'limi rahbari

To'xtayeva Dilafruz Ashurovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Qadim zamonlardan hozirgi kungacha falsafiy kategoriyalar tilshunoslikda ham qo'llanib kelinmoqda. Birinchi marta kategoriyalar haqidagi ta'limot Aristotelning "Kategoriyalar" risolasida tizimli ravishda taqdim etilgan bo'lib, unda oldingi falsafiy tafakkurning dunyo va uni bilish usullari haqidagi eng umumiy tushunchalarni aniqlashdagi urinishlar umumlashtirilgan. Aristotel tuzgan jadvalga mohiyat (modda), miqdor, sifat, munosabat (korrelyatsiya), joy, vaqt, mavqe, holat (egalik), harakat va azob (bardosh) kabi kategoriyalar kiritilgan. Faylasufning fikricha, kategoriyalar yordamida odamlar o'z dunyoqarashlarining turli, eng umumiy xususiyatlarini tavsiflagan va bu xususiyatlar tilda ma'lum so'z hamda iboralar shaklida aks ettirilgan. Qolaversa, ushbu jihatlar tilda inson dunyoqarashi prizmasidan, ya'ni antroposentrik jihatdan qayd etilgan.[1]

Vaqt, makon, miqdor kabi muhim kategoriyalarni (shu jumladan, intensivlik va uning o'lchov hamda daraja parametrlarida namoyon bo'lishi) inson o'z mavjudligi nuqtayi nazaridan anglab yetgan va tilda mohiyatan antropomorfik lingvistik birlik hamda hodisalarda ifodalagan. Bundan tashqari antroposentrizm, R.Xayrullina, E.M.Sozinovalarning "Антропоцентризм языка и его выражение во фразеологии (Tilning antroposentrizmi va uning frazeologiyadagi ifodasi)" nomli ishida ta'kidlanganidek, til tizimining barcha sathlari – lug'at, frazeologiya, so'z yasalishi, grammatika kabilarni tavsiflaydi[2]. Bular, masalan, sifat nomlari (*yaxshi, yomon, quvnoq, qat'iyatli* va hokazo), vaqt nomlari (*vaqt so'zining o'zi, shuningdek, uning turli birliklari: yil, oy, kun, tun, daqiqa* va hokazo), vaqt, makon, miqdorning majoziy talqinini beruvchi (*ko'z ochib yumguncha, necha qovun pishg'i* va hokazo) turg'un iboralar bo'lishi mumkin.

Obyektiv faoliyat, ijtimoiy hayot, madaniyat va bilishning tarixiy rivojlanishi jarayonida tafakkurning kategorial tuzilmalari rivojlanadi, alohida kategoriyalarning o'rni va roli o'zgaradi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi kategorial ma'noga ega bo'lgan fundamental tushunchalarni aniqlashga olib keladi, chunki ular ma'lum bilim sohalariga nisbatan falsafa kategoriyalariga o'xshash vazifani bajaradi.

Ko'pgina fanlarga xos yoki muayyan fanning predmetiga taalluqli kategoriyalar mavjud bo'lib, ushbu kategoriyalar o'ziga xos xususiyatlari bilan falsafiy kategoriyalar tizimidan farq qiladi. Muayyan fan kategoriyaviy apparatining asosiy elementlarini aniqlash uning rivojlanish mantig'ini, tushunchalari strukturasining tabiiy o'zgarishini ochib berishga imkon beradi.

Odamlarning nafaqat bilim tajribasi, balki amaliy faoliyati va madaniyati ham kategorial asosga qurilgan. Kategoriyalar inson amaliyoti va tafakkurining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib; tabiat, jamiyat va o'zini anglashning asosiy darajalarini ifodalaydi va odamlar dunyoqarashining eng muhim elementlari hisoblanadi. Xuddi shunday kategoriyalardan biri intensivlik sanaladi.

Intensivlik kategoriyasiga oid dastlabki tadqiqotlardan biri E.N. Sergeyevaga taalluqli. Olimaning ishida ma'lum bir xususiyatning ifodasi sifatida belgining intensivligini oshirib borish tendensiyasi, ifodalanayotgan predmetga subyektiv munosabat batafsil tahlil qilinadi. Muallif, shuningdek, xususiyat intensivligining "me'yori" tushunchasini kiritadi, ularsiz intensivlik kategoriyasi haqida gapirish mumkin emas. Lug'atlarda intensivlikka quyidagicha izoh beriladi:

[1] An'anaga ko'ra, "Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim" jurnali taniqli olimlarimizning turkum maqolalarini chop etishni yo'lga qo'ygan.

[2] Хайруллина Р.Х., Созинова Э.М. Антропоцентризм языка и его отражение во фразеологии // Вестник БГУ, серия Гуманит. Науки, вып. №, 2011, с. 1114–1117.

Intensivno – intensiv ravishda, zo‘r berib, g‘ayrat bilan, shiddat bilan; barq urib, qizg‘in.

Intensivnost – intensivlik, jadallik, tezlik, qizg‘inlik; g‘ayrat, shiddat.

Intensivn/iy, -aya, -oye; -ven, -vna – 1 intensiv, jadal, tez, qizg‘in, shiddatli; qizg‘in mehnat; 2 serunum, serhosil; qishloq xo‘jaligining intensive (serunum) sistemasi; 3 quyuq, to‘q(rang, tus haqida).

Intensifikatsiya – kuchaytirish, zo‘raytirish, jadallashtirish, samarali qilish, unumdorligini oshirish; qishloq xo‘jaligining unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligini samarali qilish[1].

Intensiv [fr. Intensif – lot.intensio – g‘ayrat qilish; kuchayish] 1 Ortiq darajada jadal, tez, qizg‘in. *Intensiv harakat. Intensiv tebranishlar. O‘zbek tilini xorijliklarga intensiv o‘rgatish kurslari. Ko‘pgina xo‘jaliklar chorvachilikni intensiv rivojlantirish yo‘liga o‘tib, yaxshi natijalarga erishmoqdalar.* Gazetadan. 2 Eng ko‘p mahsul beradigan, serunum. *Dehqonchilikning intensiv tizimi[2].*

Leksik birliklarda intensivlik kategoriyasini chuqur o‘rgangan olimlardan biri N.A. Lukyanovadir[3]. Olima intensivlikni “hodisaning so‘z orqali ifodalangan, sifat va miqdor xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, boshqacha aytganda, hodisaning o‘lchovini aks ettiruvchi mikroqiymat” deb ataydi va intensivlikni ekspressivlikning tarkibiy qismlaridan biri sifatida tasniflaydi.

Muallifning fikriga ko‘ra, ekspressivlikning intensivligi subyektning obyektga xos bo‘lgan real hodisa-xususiyatning yuksak daraja o‘lchovi haqidagi g‘oyasini amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, ya’ni ekspressiv belgining referent sifat va miqdoriy xususiyatlarini ifodalash qobiliyati, uni bir xil nomdagi referentlar sinfidan ajratib turadi. Xususiyat o‘lchovi subyektning uni idrok etish prizmasi orqali aks ettirilgan, uning hissiy munosabati hamda u tomonidan idrok etilayotgan hodisaga bahosi bilan bog‘liq kechadi.

N.A. Lukyanovaning ta‘kidlashicha, intensivlik semantik kategoriya sifatida hodisaning har qanday miqdoriy o‘zgarishi bilan bog‘liq emas, balki faqat “oddiy o‘lchov”dan chetga chiqishni ko‘rsatadigan predmet bilan aloqador, ya’ni bunda me’yoriylik holatidan kelib chiqiladi va natijada so‘zlovchi tomonidan qandaydir me’yor yoki o‘lchovga mos keladigan oddiy hodisadan boshqacha qabul qilinadi. Semantik darajada intensivlik bir qator allosemalarni umumlashtiruvchi invariant sema sifatida ifodalanishi mumkin.

Intensivlik kategoriyasining referent semantikasiga, birinchidan, predmet, hodisa va ularning belgi, xossa, sifatlarini nomlash kiradi. Narsalar, ularning xossa, sifat va atributlari miqdoriy belgilar bilan farqlanadi, intensivlik esa onomasiologik kategoriya sifatida u yoki bu xususiyatning obyektiv miqdoriy aniqligini bildiradi[4].

Agar intensivlik tabiatan belgining turli (ko‘p yoki kamroq) shaklda namoyon bo‘lishini aks ettirish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, u holda me’yor ko‘rsatkichi, odatda, boshlang‘ich nuqta sifatida olinadi.

Ba’zi bir adabiyotlarda darajalanish va intensivlik hodisasi qorishtirib yuboriladi. Jumladan, I.I.Turanskiy yozadi: “Tarkibiy nuqtayi nazardan intensivlik kategoriyasi uch qismli (uchlik) tuzilishdir: u me‘yor tushunchasini bildiruvchi markaziy va ikkita qarama-qarshi mazmunli a’zoga ega bo‘lib, bular “me’yordan kamlik” va “me’yordan ortiqlik”dir. Bu intensivlik kategoriyasining mohiyatidir”[5]. Ko‘rinadiki, olim darajalanishga xos xususiyatni intensivlikka nisbat bermoqda.

Falsafiy nuqtayi nazardan intensivlik obyekt sifat va miqdor belgilarining dialektik birligini ifodalovchi o‘lchov kategoriyasidir. Har qanday obyektning sifati ma’lum miqdor bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu o‘lchov doirasidagi miqdoriy xususiyatlar elementlarning soni, hajmi, tartibi, harakat tezligi, rivojlanish darajasi kabilarning o‘zgarishi tufayli yuz berishi mumkin. Miqdoriy o‘zgarishlarning sifatga o‘tishi rivojlanishning eng umumiy mexanizmini ochib beradi. Miqdor o‘zgarishlarining sifatga o‘tish qonuni obyektiv va universaldir. Uning mazmuni dialektikaning barcha kategoriyalari va, birinchi navbatda, sifat, miqdor, o‘lchov hamda dialektik sakrash kategoriyalari yordamida ochiladi. Har qanday miqdoriy o‘zgarish tizim elementlarining o‘zgarishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Eski va yangi sifat o‘rtasidagi farq darajasi ko‘rib chiqilayotgan obyektdagi miqdoriy o‘zgarishlarga bog‘liq. Sifat o‘zgarishlari – har bir alohida holat uchun aniq belgilangan tarzda – materiya yoki harakatning (energiya deb ataladigan) miqdoriy qo‘shilishi yoki miqdoriy kamayishi orqaligina sodir bo‘lishi mumkin. Yangi sifatning paydo bo‘lishi, o‘z navbatida, allaqachon boshqa miqdoriy aniqlikni o‘z ichiga olgan yangi shakl va o‘lchovlarga ega obyektning paydo bo‘lganligini anglatadi. Shu bilan birga, sifat o‘zgarishlarining chuqurligi har xil bo‘ladi: u berilgan harakat shakli darajasi bilan cheklanishi yoki chegarasidan tashqariga chiqishi mumkin. Intensivlik sifat va miqdorning asosiy kategoriyalari orasidagi oraliq

[1] Ruscha o‘zbekcha lug‘at. II jildlik. I jild. – Тошкент: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1983. – B. 394.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. II jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 526.

[3] Лукянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления (проблемы семантики). – Новосибирск: Наука, 1986. – 230 с.

[4] Савичева Х.Н, Рахимова Э.Ф. Понятие семантической категории интенсивности и ее языковое выражение.

[5] Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке: Моногр. – М.: Высш.шк., 1990. – С. 9.

holat bo‘lib, intensifikatsiya paytida miqdoriy va sifat belgilarining o‘zaro ta’siri juda murakkab ko‘rinishda ro‘yobga chiqadi[1]. S.Rodionovaning ushbu nazariy fikriga qo‘shilgan holda bu murakkablikni o‘zbek xalq maqollari misolida asoslashga harakat qilamiz.

O‘zbek xalq maqollarini kuzatar ekanmiz, ularda *yomg‘ir* leksemasi ishtirok etgan birliklarda intensivlik holati ko‘zga tashlanadi. Chunonchi:

Sekin yoqqan yomg‘ir*dan qo‘rq, Kulib boqqan hokimdan qo‘rq.*

Sekin *rvsh* **1** Ohista harakat bilan, asta, oshiqmasdan, shoshilmasdan…**2** Bilinar-bilinmas, sezilar-sezilmas…**3** Ehtiyotkorlik bilan, asta-asta; ozor bermay avaylab[2]…

Sevalab yoqqan yomg‘ir *yomon, Maydalab yoqqan qor yomon.*

Sevalab Maydalab, tomchilab yog‘moq; shivalamoq (yomg‘ir haqida). *Ikki kundan beri goh sevalab, goh shiddat bilan yog‘ayotgan yomg‘ir hamma yoqni ivitib yubordi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Tashqarida sevalab o‘tgan mayin yomg‘ir ham tindi.* N.Aminov, Qahqaha[3]**.**

Olashovuridan *qo‘rqma, Olag‘ovuridan qo‘rq.*

Olashovur 1 olashovur yomg‘ir. Siyrak, ammo katta-katta, tasir-tusur yog‘gan yomg‘ir. *Shu vaqatda siytak bulutlardan olashovur yomg‘ir quyib o‘tdi.* Oybek, Navoiy. **Olashovur qor** Yomg‘ir aralash yog‘gan qor. *Atrof olashovur yog‘gan qor bilan qoplangan … edi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar[4].

Ko‘p yomg‘ir *yerni buzar, Ko‘p so‘z erni buzar.*

Ko‘p 1 Son, miqdor jihatidan, me’yordan yoki nisbatan ortiq…**2** *rvsh*. Vaqt e’tibori bilan ortiq, uzoq vaqt davomida; uzoq… **3** *rvsh.* Oradan uzoq vaqt o‘tmasdan, tez-tez, dam-badam… **4** Ortiq darajada, ortiq; juda, g‘oyatda[5]…

Savalab yoqqan yomg‘ir *yondan o‘tar,*

Sevalab yoqqan yomg‘ir *jondan o‘tar.*

Savalab 3 Shiddat bilan yog‘moq, tinimsiz quymoq (yomg‘ir, qor, do‘l haqida). *Yomg‘ir savalagan sayin chang-g‘uborli atrof-javonib tobora musaffolashmoqda, fayziyob bo‘lmoqda edi.* “Yoshlik”. *Uning [Elmurodning] quloqlarini yomg‘ir aralash muzdek mayda do‘l savalay boshladi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Mashina qayiqday chayqalar, qor old oynani ayamay savalardi.* J.Abdullaxonov, Xonadon[6].

Ko‘rinadiki, *sekin* leksemasi maqolda bilinar-bilinmas, sezilar-sezilmas semasi bilan; *sevalamoq* leksemasi maydalab, tomchilab yog‘moq semasi bilan; *olashovur* leksemasi siyrak, ammo katta-katta, tasir-tusur semasi bilan; *ko‘p* leksemasi uzoq vaqt davomiylik semasi bilan; *savalab* leksemasi shiddat bilan tinimsiz quymoq semasi bilan maqolda ishtirok etgan. Ushbu leksemalar asosida vujudga kelgan intensivlikning ko‘rinishi:

Sekin yoqqan yomg‘ir→ sevalab yoqqan yomg‘ir→ olashuvur→ ko‘p yomg‘ir→ savalab yoqqan yomg‘ir

Yomg‘ir yog‘in turining maqollarda darajalanishi esa tubandagicha:

Yomg‘ir *bilan yer ko‘karar, Tinchlik bilan el ko‘karar.*

Yomg‘ir. Bulutlardan suv tomchilari holida tushadigan, yog‘adigan yog‘in. *Yomg‘ir suvi. Yomg‘ir yog‘di. O‘tgan bulutdan yomg‘ir kutma.* Maqol. *Yomg‘ir xuddi jonga igna sanchganday, ezib muttasil savalardi.* Oybek. Quyosh qoraymas. *Yomg‘ir tomchilari bilan yuvilgan havoning pokiza havoning pokiza yellari goh badanni chimchilab o‘tadi, goh seskantiradi.* Shuhrat, Shinelli yillar[7].

Jala*da qolgan yomg‘irdan qo‘rqmas.*

Jala [f. yomg‘ir tomchisi; kuchli yomg‘ir] 1 Shiddatli yomg‘ir. *Jala tongga yaqin tindi*. H.Shayxov, Rene jumbog‘i. *G‘o‘zalar jala zarbidan bir tomonga yonboshlab qolgandi.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar[8].

Jala shiddatlilik belgisi bilan *yomg‘ir*dan ustun turadi. Ushbu belgi esa ikki leksemaaro darajalanishni yuzaga keltirgan.

Yomg‘ir o‘zin ***sel*** *sanar, Ko‘lmak o‘zin ko‘l sanar.*

Sel [a.– oqim; soy, anhor, jilg‘a] **1** Shiddatli, kuchli yog‘in; jala. *Tomchi – sel bo‘lmas, Dushman – el bo‘lmas.* Maqol. *May oyi tugab boryapti-yu, haliyam har kuni yomg‘ir, har kuni sel.* N.Aminov, Qahqaha. *Bahorda qattiq sel yog‘ib, dala betini qatqaloq qopladi.* Gazetadan.

2 Tog‘li hududlarda shiddatli yomg‘irdan, jaladan yoki qor erishidan hosil bo‘ladigan, aholiga, xalq xo‘jaligiga katta zarar keltiradigan kuchli loy-suv oqimi. *To‘satdan kelgan sel oqimi Tollimarjon bosh korpusida qurilayotgan kotlovanga urilib, ishni taqqa*

---

[1] Родионова С.Е. Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий. Славянский вестник. Вып. 2. М.: МАКС Пресс, 2004. - 608 с. – С. 300.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 584-585.

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B 615.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. III jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 463.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. II jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 990.

[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 562.

[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. I jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 61.

[8] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. II jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 617.

to‘xtatib qo‘ydi. Gazetadan. *Sel yuvib ketgan yoki yozning qattiq girdoblari yalagan taqir yerlarning mayda toshlari oyoq ostida g‘ijirlardi.* S.Ayniy, Qullar[1].

*Yomg‘ir*ga nisbatan *sel* oqim miqdori jihatidan kuchli va shiddatli bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *sel* leksemasiga berilgan ikkinchi izohga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning shiddatli yomg‘ir, jala yoki qor erishidan hosil bo‘lishi qayd qilingan. Ushbu izoh *sel*ning *jala*dan ko‘ra kuchli yog‘in turi ekanligini asoslaydi.

Yomg‘ir *yog‘sa, to‘rg‘ay bolasin yashirar,* ***do‘l*** *yog‘sa, o‘z boshin yashirar.*

Do‘l 1Yumaloq va b. turli shakl, turli kattalikdagi muz parchalaridan iborat atmosfera yog‘ini. *Ayrilgan yo‘lda qolar, Bo‘lingan do‘lda.* Maqol. *Do‘l shunday shiddat bilan yog‘ar ediki, yerdan chang ko‘tarilib, havoni g‘ubor bosdi, Kunduz qorong‘ilashdi.* N.Safarov, Olovli izlar[2].

Tabiatdagi jonzotlar o‘z bolasini ardoqlab, xavf-xatardan himoya qiladi. Faqat eng so‘nggi xatar yaqinlashgandagina o‘z hayotini saqlash harakatiga tushadi. Mazkur maqolda *do‘l*ning tabiat hodisasi hisoblanmish *yomg‘ir*ga nisbatan ham hajm, ham yog‘ish shiddati bo‘yicha kuchliligi ushbu leksemalar darajalanishi uchun asos bo‘lgan.

Yuqoridagi maqollar tarkibida ajratib ko‘rsatilgan leksemalar yog‘inning kuchlilik belgisi asosida quyidagi darajalanish qatorini hosil qiladi:

yomg‘ir → jala→ sel→ do‘l

Ushbu farqlanishni yana boshqa leksemalarda ham kuzatish mumkin. Masalan, tabiat hodisasi hisoblanmish *shamol* leksemasi ishtirok etgan maqollarga e’tibor qarataylik:

Shamo*l qayoqqa essa, boshoq shu yoqqa egiladi.*

Shamol [a. shimoliy shamol, sovuq shamol] Havoning yer sathi bo‘ylab (gorizontal) harakati. *Yoqimli shamol. Sovuq shamol. Qattiq shamol turdi*[3]*…*

Uyurma shamol *uchirsa, do‘ppingni osmonda ko‘r.* **Uyurma** O‘ralib harakat qiluvchi kuchli shamol; bo‘ron, girdibod; shunday shamol bilan yuqoriga ko‘tarilib tushadigan mayda narsalar. *To‘zon uyurmasi. Qorli uyurma*[4]*…*

Yigitning kuchi – ***quyun shamol****.*

Quyun 1 Qattiq uyurmali shamol; uyurma. *Osmon bilan tutashib ketgan quyun yer bag‘rini qirtishlab, xas-xashak bormi – hammasini uchirib, aylana-aylana, tobora ko‘kka intilardi.* Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli… **2** Shiddatli yog‘in; to‘fon. *Bahorning noxosdan quturgan quyuni chirpirak urib keldi*. “Guldasta”[5]…

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi *shamol* leksemasi havoning yer sathi bo‘ylab gorizontal harakati, *uyurma* leksemasi o‘ralib harakat qiluvchi kuchli shamol, *quyun* leksemasi esa qattiq uyurmali shamol ekanligi haqidagi nazariy ma’lumotlarga tayangan holda ushbu leksemalar *shamol* so‘zida intensivlikni yuzaga keltirgan degan xulosaga kela olamiz:

Shamol → uyurma shamol → quyun shamol

Endi esa havoning yer sathi bo‘ylab (gorizontal) harakatidagi darajalanish qatorini kuzatamiz:

Yel *yantoq qulatar, Bo‘ron daraxt qulatar.*

Yel I 1 *ayn.*shamol. *Tog‘dan sovuqqina yel esardi.* P.Tursun, O‘qituvchi[6]…

Yelga *– yarg‘oq, ayozga – kiyiz*.

Yarg‘oq – teridan tikilgan libos, po‘stin. “Qishning kunida yelga (yengil izg‘iringa) yarg‘oq kiysang chidaysan, ammo ayoz (qattiq qora sovuq) tursa, kiyiz yopinib jon saqlashing mumkin”, deyilmoqchi[7].

Tuyani ***shamol*** *uchirsa, echkini osmonda ko‘r.*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda *yel* aynan *shamol* deya izohlangan. Ammo ushbu lug‘atdan ming yillar oldin xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollarni kuzatsak, ularda *yel* va *shamol* leksemalari o‘rtasida tafovut borligi ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, ***yel*** *yantoq qulatar…*va *Tuyani* ***shamol*** *uchirsa, echkini osmonda ko‘r* maqollarida aynan *yel*ning *shamol*dan kuchsizlik semasi asos bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Quyun *o‘zin sel sanar, Qo‘rqoq o‘zin er sanar.*

Quyun leksemasiga yuqoridagi maqol tarkibida izoh berilganligi bois o‘sha tavsif bilan cheklanamiz.

Xalq puflasa, ***bo‘ron*** *bo‘lar, Xalq tepinsa – zilzila.*

Birovga ***shamol*** *tilasang, O‘zingga* ***bo‘ron*** *kut.*

Bo‘ron 1 To‘zon yoki qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol. *Bo‘ri bo‘ronda quturar.* Maqol…**2** *ko‘chma* To‘xtamasdan yog‘ilayotgan nar-

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 588.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. I jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 950.

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. VI jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 582.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik.V jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 619.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. VI jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 316.

[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. VI jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 165.

[7] Shomaqsudov Sh.,Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 88.

sa… **3** *ko‘chma* Shiddatli, davomli harakat, oqim; to‘fon[1]…

*Dengiz **dovuli** bilan mashhur, Sahro – **bo‘roni** bilan.*

Dovul Vayronalik keltiruvchi kuchli bo‘ron. *Dovul turdi. Dovulda qolmoq[2]…*

Yuqoridagi maqollar asosida havoning yer sathi bo‘ylab (gorizontal) harakatidagi darajalanish qatorini quyidagi tarzda shakllantirish mumkin:

Yel (kuchsiz shamol) → *shamol* (havoning yelga nisbatan yer sathi bo‘ylab kuchliroq harakati) → *quyun* (qattiq uyurmali shamol) → *bo‘ron* (to‘zon yoki qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol) → *dovul* (vayronalik keltiruvchi kuchli bo‘ron).

Ushbu so‘zlarning maqollar tarkibida anglatgan semalari asosida quyidagi darajalanish qatori shakllandi:

yel → shamol → quyun → bo‘ron → dovul

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasiga asoslanib, biz intensivlik kategoriyasini boshqa obyektiv va subyektiv kategoriyalardan, chunonchi, darajalanishdan mustaqil va ayni chog‘da unga ekvivalent sifatida haqli ravishda ajratishimiz mumkin.

Sifat va miqdor kategoriyalari ajralmas birlikda bo‘lib, agar sifat belgilari turli hodisalarni bir-biridan ajratishga, ularning ichki mohiyatini aniqlashga imkon bersa, miqdoriy ko‘rsatkichlar obyektiv yoki subyektiv ravishda aniqlangan sifatni ma’lum pozitsiyalardan o‘lchashga xizmat qiladi.

Demak, sifat va miqdor kategoriyalari, bir tomondan, turli xil tabiatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular ajralmas butunlikda mavjud bo‘lib, buni til faktlarida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, suvning sovuq holatidan qaynashgacha bo‘lgan jarayonida turli xil harorat ko‘rsatkichi mavjud bo‘ladi: 30°, 60°, 100°. Ushbu raqamlar suv harorati ko‘tarilishining intensivligini ifodalasa, suvning turli haroratdagi holatiga nisbatan qo‘llaniluvchi *iliq, issiq qaynoq* so‘zlari darajalanish qatori hisoblanadi. Demak, bunda har xil harorat belgining turli ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi. Ko‘rinadiki, tabiatda va jamiyatda bo‘lgani singari tilshunoslikda ham yondosh hodisalarning bir-biriga ta’siri, ba’zan esa qorishib ketish holatlari mavjud bo‘ladi.

Tilda shartli ravishda ajratilgan sifat va miqdoriy baholashlar o‘rtasida umumiylik ko‘p bo‘lishi mantiqan to‘g‘ri keladi va ko‘pincha ular o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazi mumkin. Shuningdek, dunyoning cheksiz xilma-xilligida ontologik jihatdan ajralmas birlikda mavjud bo‘lgan barcha turdagi va materiya shakllari, sifat va miqdoriy aniqlik bilan tavsiflanadi. Maqolaning kelgusi sonida ushbu jihatlar batavsil yoritiladi.

Rezyume: Har qanday til birliklari asosida intensivlikni o‘rganishda tadqiqotchilar bir qator muammolarga duch kelishadi, ulardan eng muhimi intensivlikni chegaralash va tegishli kategoriyalardan farqlash muammosidir. Chunki ushbu kategoriyalarning har biri mustaqil nom ostida yashar ekan, mustaqil kategoriya maqomini oladi, bu esa ushbu kategoriyalarni bir-biridan farqlash muammosini kun tartibiga qo‘yadi. Intensivlik kategoriyasining mustaqil mavjudligini asoslash uchun ushbu tushunchani nafaqat semantik, balki funksional hamda pragmatik jihatdan ham aniq belgilash va farqlash lozim bo‘ladi.

Resume: When studying intensity based on any linguistic units, researchers encounter a number of problems, the most important of which is the problem of limiting intensity and isolating it from related categories. Because each of these categories, living under an independent name, acquires the status of an independent category, which puts the problem of distinguishing these categories from each other on the agenda. In order to justify the category of intensity, but also independent independence, it is necessary to clearly define and highlight this feature according to natural semantic, functional and pragmatic compatibility.

Резюме: При изучении частоты на основе любых языковых элементов исследователи сталкиваются с рядом проблем, наиболее важным из которых является ограничение проблемы и выделение ее родственных категорий. Что удается из этой категории, живущей под самостоятельным названием, узнаваемым статусом независимой категории, что бросается в глаза на повестку дня, что приводит к отличию этих категорий друг от друга. Чтобы обосновать применение метода, но и самостоятельно самостоятельно, необходимо четко определить и выделить этот признак по естественной смысловой, функциональной и прагматической совместимости.

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. I jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 698.
[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. I jild. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 912.